


**“TASDIQLAYMAN”**  
**O‘zbekiston Respublikasi**  
**Maktabgacha va maktab ta‘limi**  
**vazirligi huzuridagi Jamoatchilik**  
**Kengashi raisi**

  
X.R.Mamasaidov

**Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi huzuridagi Jamoatchilik**  
**kengashi majlisining**  
**3 -sonli bayoni**

2025-yil 17-iyul

Toshkent shahri

**Raislik qiluvchi:** X.R. Mamasaidov – vazirlik huzuridagi Jamoatchilik kengashi raisi

**Qatnashdilar:** Jamoatchilik kengashi a‘zolari (ro‘yxat bo‘yicha).

**KUN TARTIBI:**

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining o‘ttiz to‘rt yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida” 2025-yil 10-iyuldagi 222-son qarorida belgilangan vazifalar to‘g‘risida**

*(X.Mamasaidov, M.Boboyorov, I.Bakirova, N.Mamaraimova, X.Mamasaidov)*

Yig‘ilish avvalida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining o‘ttiz to‘rt yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida” 2025-yil 10-iyuldagi PQ-222-son qarorining mazmun-mohiyati, belgilangan vazifalar xususida to‘xtalib o‘tildi.

Xususan, mamlakatimiz mustaqilligi, milliy istiqlolimizning o‘ttiz to‘rt yillik shonli sanasini Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot darajasi, jahon maydonidagi obro‘-e‘tiboriga har tomonlama munosib tarzda, yuksak saviyada nishonlash maqsadida o‘tkaziladigan ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarning ahamiyati;

ta‘lim sohasidagi islohotlar ilgari tariximizda misli ko‘rilmagan o‘zgarishlarga olib kelayotgani, maktabgacha ta‘lim tizimida qamrov 2017-yildagi 27 foizdan hozirgi paytda 77 foizga, oliy ta‘limda esa 9 foizdan 42 foizga yetgani, yurtimizda ijod maktablari, ixtisoslashgan maktablar va Prezident maktablari kabi yangi modeldagi maktablar tizimi paydo bo‘lgani;

sog‘liqni saqlash, ilm-fan, IT, madaniyat, adabiyot va san‘at sohalari rivojiga ham katta e‘tibor berilayotgani, Parij Olimpiadasi va Paralimpiadasida sportchilarimiz ilk bor kuchli o‘n beshtalikdan joy olgani;

“Yoshlar — Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari” degan shior ostida yoshlarimizning zamonaviy bilim va kasb-hunarlar, ona tili bilan birga xorijiy tillarni, IT texnologiyalarini egallashlari, tadbirkorlik bilan shug‘ullanishlari, iste‘dod va qobiliyatini ro‘yobga chiqarishlari uchun har tomonlama qulay shart-sharoit yaratib



berilayotgani, bunga javoban o'g'il-qizlarimiz turli sohalarda yutuqlarga erishayotganlari alohida ta'kidlab o'tildi.

Kun tartibidagi masalalarni muhokama qilish natijasi bo'yicha yig'ilish **qaror qiladi:**

1. Kengash raisi X.Mamasaidovning O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining o'ttiz to'rt yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida" 2025-yil 10-iyuldagi PQ-222-son qarorining mazmun-mohiyati, amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar to'g'risidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Kengash a'zolariga Mustaqillik bayramining yurtimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini ta'minlash borasidagi ahamiyatiga bag'ishlangan ma'naviy-ma'rifiy anjumanlar, ochiq muloqot va suhbatlar, adabiy-badiiy kechalarda faol ishtirok etilsin.

3. Mazkur yig'ilish qarorining ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Yig'ilish kotibi

N.Mamaraimova